



BO'LAJAK OFITSER MA'NAVIY-MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA HARBIY PEDAGOGNING MA'NAVIY QIYOFASI

Taxir Maxamatjonovich Burxanov

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Harbiy psixologiya va pedagogika kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD), dotsent.

Maqolada bo'lajak ofitser ma'naviyati harbiy-pedagogning ma'naviy qiyofasiga uzviy bog'liqligi hamda harbiy pedagogning shaxsiy sifatlari katta ahamiyatga egaligi ko'rsatilgan. O'qituvchi ustoz sifatida qanday kasbiy fazilatlarga ega bo'lishligiga urg'u berilgan. Bo'lajak ofitserlarning tarbiya jarayonida uzluksizlikning ta'minlanishi zarurligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, o'qituvchi, ma'naviyat, shaxsiy sifatlar, kasbiy fazilatlar, tarbiya uzluksizligi.

В статье показано, что моральный дух будущего офицера неразрывно связан с нравственным обликом военного педагога и что большое значение имеют личностные качества военного педагога. Делается акцент на том, какими профессиональными качествами должен обладать учитель как педагог. Высказывается мнение о необходимости обеспечения преемственности в процессе подготовки будущих офицеров.

Ключевые слова: студент, педагог, духовность, личностные качества, профессиональные качества, непрерывность образования.

The article shows that the morale of the future officer is inextricably linked with the moral character of a military teacher and that the personal qualities of a military teacher are of great importance. Emphasis is placed on what professional qualities a teacher should have as a teacher. An opinion was expressed about the need to ensure continuity in the process of training future officers.

Key words: student, teacher, spirituality, personal qualities, professional qualities, continuity of education.



Dunyoda harbiy ta’lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlariningma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga alohidae’tibor qaratilmoqda. Xalqaro miqyosda harbiylarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish va baholash strategik ahamiyat kasb etib, bu esa, o‘z navbatida, harbiy ta’lim tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy etish, oliy harbiy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg‘or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etmoqda.

Ma’lumki, bugungi globallashuv jarayoni avj olgan tahlikali va qaltis bir paytda har bir mamlakatda milliy va ma’naviy-axloqiy tarbiyaga e’tibor qaratish har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi dunyoning xarakterli xususiyatlaridan biri - kurash asosan tafakkur maydonlarida, ya’ni inson ongi va qalbini egallah ustida kechmoqda. Shu bois, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim omili bo‘lajak harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy, ruhiy tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Kishilik jamiyatni rivojinining shaxs ma’naviy kamolotiga ta’siri barcha zamonlarda turli mutafakkirlar va mutaxassislar tomonidan o‘rganib kelingan. Chunki insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti bilan shaxs ma’naviy kamoloti o‘rtasida o‘ziga xos dialektik aloqadorlik mavjud. Biroq bu dialektik aloqadorlik turli zamonlarda turli tarzda namoyon bo‘ladi. O‘z iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy-madaniy xususiyatlariga ko‘ra mutlaqo o‘zgacha fenomenal jarayon bo‘lmish hozirgi zamon sivilizatsiyasi sharoitida mazkur bog‘liqlik nihoyatda yorqin namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir”



mavzusidagi nutqida, - Respublikamizda oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, harbiy ta’lim tizimini ma’naviy-axloqiy jihatdan isloh qilishda eng ilg‘or innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni yangi sifat darajasiga ko‘tarishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Ayni vaqtda, aytish joizki, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi zamon talablariga to‘liq javob bermaydi. Kursantlarimiz va tinglovchilarimiz ta’lim sohasida eng ilg‘or, innovatsion bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur”, - deb alohida ta’kidlab o‘tgan[1].

Yangi asr arafasida jahon iqtisodiy xo‘jaligi tarkibi tubdan o‘zgardi. Fan va texnika taraqqiyoti yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Fan va texnikaning qudratli taraqqiyoti bir tomondan informatsion jamiyatning shakllanishiga olib kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan yangi tendensiya - globallashuv jarayonini yuzaga keltirdi. Shuningdek, madaniy taraqqiyot bobida ham misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, ommaviy madaniyatning rivojlanib borayotgani shaxs ma’naviy dunyosiga beqiyos ta’sir o‘tkazmoqda. Globallashuv va madaniyat olamidagi o‘zgarishlar XXI asr arafasiga kelib uch qutbli dunyoning shakllanishiga zamin yaratdi. Ushbu jarayonlar shaxs ma’naviy kamoloti xarakterining, hayotiy qadriyatlari va ideallarining, ijtimoiy mavqeining o‘zgarishiga, qator ijtimoiy illatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Buning ustiga, XXI asr boshlariga kelib shaxs ma’naviy kamolotiga tahdid soluvchi omil va vositalar miqdori ko‘payib ketdi. Shaxs ma’naviy olami uchun kurash turli siyosiy kuchlar faoliyatining asosiy maqsadlaridan biriga aylandi.

Jamiyat taraqqiyotida yoshlar ma’naviyatining o‘rni va ahamiyati juda ulkandir. Jamiyatda yashovchi har bir inson o‘z e’tiqodi, maqsadi va manfaatlari bilan Vatanga hizmat qilishi, uning buyuk kelajagi uchun intilishi lozim. Mamlakatimiz Asosiy Qonunida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilganligi alohida belgilab qo‘yilgan. Shu boisdan ham ushbu



vazifalarni samarali amalga oshirishda mamlakatimiz xavfsizligi, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli ta'minlaydigan professional hamda safarbar milliy armiyani shakllantirishga yordam beradigan yangi qonunlar, boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonini muntazam davom ettirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada Oliy harbiy ta'lim muassasalarida zarur bilim, qobiliyat va ko'nikmalarga, yuksak jangovar va ma'naviy fazilatlarga ega, o'z Vatanini munosib himoya qilishga qodir yuqori malakali ofitser kadrlarni tayyorlash bo'yicha samarali tizimni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, bugungi kunda "Yuqori professional, harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatli, fidoyi va mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi" [2].

Shu boisdan ham bugungi kunda Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni rivojlantirish bo'yicha bir qancha ilmiy-amaliy choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday tadbirlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagagi PQ-3898 sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagagi 140-tonli "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2019 yil 12 martdagagi 202-tonli "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi faoloyiatini tashkillashtirish bo'yicha" qo'llanma hamda Mudofaa vazirligining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Bulardan ma'lum bo'ladiki, ma'naviyati yuksak millat va davlatnigina kelajagi buyuk bo'lishi mumkin.

Tarixdan ma'lumki, inson taraqqiyoti davrida, yozuv paydo bo'lishi bilan ta'lim olish, ta'lim berish, tarbiyalashga bo'lgan ehtiyoj kuchaya borgan. Shu ehtiyojlar asosida "Ustoz-shogirdlik" an'analari shakllana borgan. Hamma



zamonlarda ham ta’lim-tarbiya jarayonlari qonun yo‘li bilan tartibga solinmagan bo‘lsa-da, ta’lim-tarbiya ishiga qiziqish va ehtiyoj kuchaya borgan. Ta’lim-tarbiya, ustozning o‘rniga va ahamiyatiga yuksak baho berilgan.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti, uning u yoki bu vaqt va makondagi darajasi ko‘p jihatdan fuqarolar ma’naviyati, turmush tarzi, kishilarning ma’naviy-moddiy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda ularning qay darajada qondirilishiga bog‘liqdir. Komil inson haqida tasavvuf adabiyotida ko‘p asarlar bitilgan. Ana shunday kishilardan biri XIII asrda yashagan Aziziddin Nasafiy bo‘lib, “Insoni komil” nomli risolasida komil insonga ta’rif berib, shunday yozadi: “Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo‘lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim unda quyidagi to‘rt narsa kamolatga yetgan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq va maorif”. Bu sifatlar bilan ziyyntlangan odam yolg‘on, rivo va badkirdolikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi [3].

Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon Sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal, qo‘llanma vazifasini o‘tagan ko‘p pandnomalar, xalq kitoblari mavjud bo‘lgan. Masalan, Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa’diyning “Guliston”, “Bo‘ston”. Amir Temurning “Temur tuzuklari”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbubul-qulub”, Xusayn Voiz Koshifiyning “Axloqi muhsiniy” va boshqalar.

Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona fazilatlari sanab o‘tilgan. Bular qatoriga ulug‘ mutafakkir quyidagilarni kiritadi: tavba, xalol luqma bilan qanotlanish, o‘z kasbidan topib kun o‘tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o‘zini kam deb bilish, hatto farzandlariga ham qo‘pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo‘lish, yaxshi, muloyim tilli bo‘lish, rahmdil bo‘lish, saxiy, mard, xalimlik. Xushxulq bo‘lish, rizo-rozilik bilan kun o‘tkazish, sabrli, sadoqatli, vafoli bo‘lish riyozat chekishdan qo‘rmaslik [4].



Yuqoridagilarga asoslangan holda bugungi kursant, ertangi harbiy xizmatchi yuksak ma’naviy komillikka erishishi uchun o‘zida inson uchun eng muhim quyidagi fazilatlarni mujassam qilishi zarur: aqliy zukkolik, huquqiy komillik, axloqiy yetuklik, siyosiy teranlik, mehnatga, tanlagan harbiylik kasbiga halol munosabat, yuksak madaniy-ma’naviy saviya, harbiy professional iftixor, milliy va umuminsoniy g‘urur va boshqalar.

Hozirgi davrda oliy harbiy ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshirishi lozim bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlar ko‘lami kengaydi, mazmuni sifat jihatidan yangilandi. Bu, o‘z navbatida, harbiy ta’lim-tarbiya tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan insonlardan ijodiy izlanishni, ishga yangicha yondashishni, fidoyilikni, mas’uliyat hamda o‘z kasbining haqqoniy ustasi va jonkuyari bo‘lishni talab etadi.

Bo‘lajak ofitser ma’naviy madaniyatini shakllantirish doimiy tizimlilik, uzviyilikni, davomiylilikni talab etadi. Shuning uchun ma’naviy, ma’rifiy ishlarning yangi shakl va mazmunini boyitib borish talab etiladi. Ma’naviyat har qanday vaziyatda buyuk tariximiz, madaniyatimiz, qadriyatimiz, urf-odatlarimiz, mustaqilligimiz g‘oyalari asosida shakllanishi, rivojlanishi kerak.

Ma’naviyat tushunchasi jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etadi.

Shuning uchun ham bo‘lajak ofitserlar ma’naviyatini shakllantirish ularning fikrlash qobiliyatini o‘stirish, diniy tushunchalarini tartibga solish, ularni ilm olishga qiziqtirish, dunyoqarashini shakllantirish, falsafiy-mantiqiy fikrlashini shakllantirish, kiyinish, muomala madaniyatini o‘stirish, odobli, axloqli bo‘lishiga erishish, jismoniy barkamol, mehnatsevarlik kabi xislatlarni shakllantirish, tarixini bilish, milliy madaniyatini egallahlariga erishish, ota-onasi, oilasi, Vataniga mehr-oqibatli bo‘lishga o‘rgatish, har qanday vaziyatlarda ham jangovar shaylikni saqlab turish kabi keng qamrovli jarayonni o‘z ichiga oladi.



Harbiy pedagogning ma’naviy tarbiyachi sifatidagi shaxsiy va kasbiy sifatlari tarbiyaviy ishdagi ta’sirchanlikni ta’minlovchi omillardir. Chunki kursantlar ko‘pincha harbiy-pedagoglarga taqlid qiladi, ulardagi ijobjiy yoki salbiy jihatlarni o‘zlashtiradi.

Bo‘lajak ofitserlarga ma’naviy tarbiya berishda, ayniqsa, o‘qituvchining shaxsiy sifatlari juda ahamiyatlidir.

Ular quyidagilardan iborat:

birinchidan, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odoblilik. Bunda o‘qituvchi mafkurasining tozaligi, milliy ongliligi, milliy odob va axloq me’yorlariga qat’iy rioya qilishi, millatimiz ma’naviy merosini qanchalik egallaganlik darajasi, pedagogik odobi tushuniladi;

ikkinchidan, farosatlilik, xushmuomalalik, samimiylilik, to‘g‘riso‘zlik;

uchinchidan, millatlararo muloqot madaniyati, adolatparvarlik, beg‘arazlik, har qanday vaziyatda o‘zini idora qila bilish;

to‘rtinchidan, vatanparvarlik, milliy g‘urur va kelajakka ishonch;

beshinchidan, kiyinish madaniyati, ozodalik.

Qadimdan bolaga bilim beruvchi, tarbiyalovchi va hunar o‘rgatuvchi kishilar “Ustoz” degan nom bilan sharaflab kelingan. Hozir ham shunday.

Hamma zamonlarda “Ustoz” degan sharafli nom bolaga o‘zining hunari, bilimini bera olgan, singdira olgan, maxsus qonun-qoidalar, urf-odatlar, madaniyat, ishlab chiqilgan milliy an’analar, xulq- atvor qoidalariga qat’iy amal qilgan va o‘z zimmasidagi vazifalarini sharaf bilan uddalagan, bajargan insonlargagina nasib etgan. Ustozlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarining o‘z mezoni bo‘lgan. Shu mezon asosida ustozlarga baho berilgan. Ota-onalar ham farzandini ta’lim olish uchun biror ustoz qo‘liga berishda uning yuqorida aytilgan mezonga mosligi, shu mezon talablariga javob bera olish darajasini o‘rganib chiqqanlar.

Ustozlarning shaxsiy sifatlari bilan birga kasbiy fazilatlarining ham qat’iy mezonlari bo‘lgan. Jumladan, shaxsiy sifatlari mezonlari saxiylik, odob, mehr-



shafqatlilik, marhamatlilik, ochiqlik, shirin muomalalik, sabrlilik, talabchanlik, iffatlilik, itoatlilik, qanoatlilik, to‘g‘riso‘zlik, poklik, muloyimlik kabi fazilatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, ustozlarning kasb madaniyati hamda uning quyidagi ijobiy va salbiy xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan:

bilimni boylik orttirish maqsadida emas, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish maqsadida o‘rganish;

xalqimiz an’anasiga ehtiromda bo‘lish;

nopok kishilar bilan aloqada bo‘lmaslik;

boshqalarga nisbatan adovatda bo‘lmaslik;

faqat boylik orttirish maqsadini ko‘zlamaslik;

jur’atsizlik, dangasalik, yalqovlik, takabburlik, yolg‘onchilik qilmaslik.

O‘z kasbiga qiziqishi, chuqur bilim berish, hunar o‘rgatishi, bilimiga yangiliklar kiritish, yaxshi shogirdlar tayyorlash kabi fazilatlar ustozning kasbiy fazilatlari qatoriga kiritilgan. Ustozdagi ushbu sifatlar qadrlangan. Xalq ana shunday fazilatlar asosida “Ustoz” siyemosini ko‘rganlar.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy iborasi bilan aytganda: “Inson zebi-ziyinati bilim va odobdir. Bularni shogirdlariga singdirgan ustozlargina chinakam ustozlardir” [5].

Pedagogka zarur bo‘lgan fazilatlardan biri – uzoqni ko‘ra bilish, kelajakni tasavvur qila olish. Bunda asosan, tug‘ilish bor ekan – hayot bardavom, hayot bardavom ekan tarbiya ishi tunganmasdir, har zamondagi insonlar uchun ham tarbiya zarur, bizning bugungi berayotgan tarbiyamiz qanday shaxslarni shakllantirishi kerak, bizning tarbiyamiz bilan shaxs bo‘lib shakllangan avlod o‘zidan keyingi avlodlarga qanday ta’sir qila olish imkoniga ega bo‘ladi, degan savollarning javobini topa olish, tasavvur qila bilishi tushuniladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, bo‘lajak ofitser ma’naviy-malaniyatini yuksaltirishda, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda harbiy pedagog-o‘qituvchi ma’naviy qiyofasi, undagi barcha shaxsiy va kasbiy fazilatlar



qatorida zamon talabini to‘g‘ri his etish, zamon ruhi bilan hamnafas bo‘lish, faoliyatda taraqqiyot bilan hamohang bo‘lish, axborot-kommunikasion texnologiyalarni qo‘llay olish, iqtisodiy bilimga ega bo‘lish, huquqlarni yaxshi bilish, o‘z navbatida mamlakat rahabariyati tomonidan olib borilayotgan siyosatni to‘g‘ri talqin qilish kabilardir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh.M. 2022 yil 13 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida “Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir” mavzusidagi nutqidan. / Sh. Mirziyoyev. //Xalq so‘zi. 2018 yil. 3-son.
2. Mirziyoyev, Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. / Sh.Mirziyoyev. 2-jild. – T.: O‘zbekiston. 2019. – B. 88.
3. Qurbonov, Sh. Barkamol avlod orzusi. / Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Ahliddinov. – T.: Sharq. 1999.
4. Quronov, M. Milliy dastur o‘qituvchi professiogrammasida. / M.Quronov, M.Buranov. //Xalq ta’limi. 1998. 1-son. –B.42–45.
5. Bulatov, S. Ustozning shaxsiy va kasbiy fazilatlari. / S. Bulatov. //Xalq ta’limi. 1998. 1-son. –B.64–67.